ISSN 2181-3187

# RUS TILINI O`QITISH METODIKASI. RUS ADABIYOTIDA KLASSITSIZM VA SENTIMENTALIZM

***Keldiyorova Gulnoza Botirjonovna***
*Samarqand viloyat Pastdarg`om tumanida joylashgan 47-maktabning Rus tili va adabiyoti fani o`qituvchisi*

**Annotasiya**

*Ushbu maqolada o`zbek tilli maktablarrda o`quvchilarga rus tilini o`qitish metodikasi hamda qadimgi rus yozma manbalarining shakllanish tarixi, etnik kelib chiqishi haqida bayon qilingan. Rus adabiyotchiligida og`zaki ijod, epos va mifologik janrning ahamiyati ko`rsatilgan. O`rta asrlar rus adabiyotining rivojlanishi va uning keying rivojlanishi to`g`risida fikr yuritilgan. Klassitizm va Sentimentalizm haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *metod, innovatsiya, metodika, klassitsizm, sentimentalizm, mif, epos, odob-axloq, tarbiyaviy badiiy adabiyot*

Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o`rgatamiz? O`qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o`rgatamiz? ta`limusullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi grek-lotincha“metodos-“metodus” so`zidan olingan bo`lib, ma`lum maqsadga eltuvchi yo`llar,usul ma`nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma`nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma`noda ta`limning konkret dars jarayoni bilan bog`liq tushunchani anglatadi. Mashg`ulotlarni rejalashtirish va o`quv materiallarini tayyorlash bilan bog`liq bo`lgan ko`rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi.“Metod” atamasi keng ma`noda o`quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab “didaktika” va “metodika” torma`noda qo`llanilib kelinmoqda. Shunga ko`ra didaktika ta`lim mazmuni nimao`rgatiladi? Metodika esa ta`lim usullari qanday o`rgatiladi? Masalalari bilan shug`ullanadi.[1]

Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o`rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko`rinishda bo`lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta`limiy maqsadda o`rganilgan. Grammatik mashqlar til o`rganuvchining mantiqiy tafakkurini o`stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik

[1]Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 37-43.

bilimlarni bayon etish ta`limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o`rganish yozma nutqqa asoslangan.
2. O`rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo`lgan.
3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so`ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.
4. Grammatik shakl va so`zlarning ma`nosi so`zma-so`z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So`zma-so`z tarjima va quruq yodlash yo`li bilan til materiali o`zlashtirilgan.
6. So`zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.[2]

Ta'lim tizimini rivojlantirish turli noodatiy ta'lim metodlaridan foydalanish uchun yaangicha yondashuv zarur hisoblanadi. Eng avvalo ta'limga innovatsiyani olib kirish va undan samarali foydalinish muhimmahamiyat kasb etadi. Innovatsion – inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma`nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo`lgan munosabati va boshqalarni o`rgangan. Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o`zaro farqalanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma`nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta`lim, ma`lum bosqichlari bo`yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G`arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillario`qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta`lim muassalarining o`quv rejalaridan o`rin olgan. Uchala tilni o`qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun`iy muhitda o`rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan,darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o`rganish va o`rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o`z navbatida, tegishli chet til o`qitish texnologiyasini qo`llashni taqozo etadi.

Integratsiyalashgan dars.Integratsiya, bir tomondan, talabalarga «butun dunyo» ni ko'rsatish imkonini beradi, boshqa tomondan, ayniqsa, o'rta maktabda o'qitishda Profil farqlashni amalga oshirish uchun ajratilgan o'quv vaqtidan foydalanish imkonini beradi. Ta'limga integratsiyalashgan yondashuvning uslubiy asoslari atrof-muhit va uning butun qonunlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, shuningdek, fan asoslarini o'zlashtirishda fan va predmetlararo aloqalarni o'rnatishdir. O'quv jarayonining samaradorligi asosan o'qituvchining darsni to'g'ri tashkil etish va darsning muayyan shaklini to'g'ri tanlash qobiliyatiga bog'liq. Darslarni o'tkazishning noan'anaviy

[2] 14. Raxmanova, M. Q. (2020). Ta'lim jaraènida o'quv munozaralarini tashkil etishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi va faolligi. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 4(4), 68-73.

shakllari nafaqat o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishini oshirish, balki ularning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish, turli bilim manbalari bilan ishlashni o‘rgatish imkonini beradi[3]. Demak o`quvchilarning bilim olishi ularning mustaqil firk yuritish koifisentini oshirish bilan baholanadi. Ya’ni o`quvchi o`zi o`rganadigan bilimini qanday maqsadda qo`llay olishni bilmasa bundan foyda yo`q. o`quvchida tafakkur va mantiq shakllangan bo`lsa uning bilimini rivojjlantirish shu qadar oson bo`ladi.

Rus adabiyoti to`g`risida to`xtalar ekanmiz, qadimiy boy tarixga , yozma va og`zaki manbalarga ega bo`lgan badiiy san’atni tushunishimiz mumkin. Rus adabiyotining shakllanishi Qadimgi Slavyan xalqlarining o`z alifbosiga ega bo`lishi bilan bo`gliqdir. Bu esa tarixdan ma’lumki, IX asrga borib taqaladi. O`rta asrlar rus yozma adabiyotining shakllanishiga turli eposlar, xalq og`zaki ijodi qahramonlar va mifologik dunyoqarashning ahamiyati ham cheksiz bo`ldi. Keyingi o`rinlarda rus adabiyoti vakillari (Lomonosov kabi) insonnning ulug`lanishi yoki uning ichi va tashqi kechinmalari, odamlarning ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib turli janrlarda ijdo etishdi. Quyida esa ana shu oqimlardan ikki turi haqida so`z boradi.

Klassisistlar birinchi navbatda burch va sharafni qo'yishdi, shaxsiy his-tuyg'ular ijtimoiy tamoyilga bo'ysunishi kerak edi. Albatta, 18-asr adabiyotini idrok etish qiyin. Zamonaviy o'quvchi ma'lum bir til va uslub bilan chalkashib ketadi. Klassisist yozuvchilar o'z asarlarini uchlik nazariyasiga amal qilgan holda yaratdilar. Demak, asarda aks etgan voqea-hodisalar vaqt, joy va harakat jihatidan cheklanishi kerak edi. Klassizmda M. V. Lomonosovga tegishli bo'lgan "uch tinch" nazariyasi ham muhim rol o'ynadi

Klassikistlar ijtimoiy tamoyilni, shaxsni asos qilib olgan bo‘lsa, ulardan keyin paydo bo‘lgan sentimentalistlar qahramonlarning ichki dunyosiga, shaxsiy kechinmalariga murojaat qilishadi. Sentimentalizmda alohida o'rin N.M.Karamzinga tegishli. 18-asrning oxiri adabiyotda “romantizm” deb nomlangan yangi yo‘nalishga o‘tish davri bilan belgilandi. Romantik asarning qahramoni hayotning adolatsizligiga norozilik bildiruvchi, mutlaqo yolg'iz va azob chekayotgan ideal xarakter edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**:

1. Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 37-43.
2. Raxmanova, M. Q. (2020). Ta’lim jaraènida o‘quv munozaralarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi va faolligi. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 4(4), 68-73.
3. Jumaniyozova Dilfuza Kadamovna, Rus tili darslarida o‘qitishning nostandart shakllari va usullari- “Molodoy uchenыy” № 22 (417) / 2022-673b.

[3] Jumaniyozova Dilfuza Kadamovna, Rus tili darslarida o‘qitishning nostandart shakllari va usullari- “Molodoy uchenыy” № 22 (417) / 2022-673b.